



TUG'MA YURAK NUQSONLARI BO'LGAN BOLALARDA PARVARISH VA REABILITATSIYA

Mo'ydinova Xumoraxon Ulug'bek qizi

Qo'qon universiteti Andijon filiali Pediatriya
yo'nalishi 25-02-guruh talabasi

Tojiboyeva Nargiza Latifjonovna

Klinik va patalogik anatomiya kafedrası katta o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17441256>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 15-oktabr 2025 yil
Ma'qullandi: 20-oktabr 2025 yil
Nashr qilindi: 25-oktabr 2025 yil

KEY WORDS

Tug'ma yurak nuqsonlari, bolalar, parvarish, rehabilitatsiya, sog'liqni saqlash, psixologik yordam, diagnostika, ijtimoiy moslashuv.

ABSTRACT

Bu maqolada tug'ma yurak nuqsonlari bilan dunyoga kelgan bolalarda parvarish va rehabilitatsiya jarayonlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tug'ma yurak nuqsonlari bolalarda sog'liqni saqlash va hayot sifati uchun jiddiy xavf tug'diradi, shu sababli samarali parvarish va moslashtirilgan rehabilitatsiya muhim ahamiyatga ega. Maqolada kasallikning turlari, bolalardagi klinik ko'rinishlari, diagnostika usullari, shuningdek parvarishlash metodlari va rehabilitatsiya usullari batafsil bayon etiladi. Unda sog'liqni saqlash tizimidagi muhim jihatlar, ota-onalar roli, psixologik yordam ko'rsatish va ijtimoiy moslashuv jarayonlari ham ko'rib chiqiladi. Mazkur maqola bolalar sog'lig'ini yaxshilash maqsadida zamonaviy ilmiy yondoshuvlar asosida parvarish va rehabilitatsiya tizimini yaratishga qaratilgan.

Tug'ma yurak nuqsonlari TYN bolalar orasida eng ko'p uchraydigan tug'ma kamchiliklardan biri hisoblanadi. Bu nuqsonlar yurakning strukturaviy buzilishlari natijasida qon aylanishining normal ritmi va hajmi buziladi, bu esa bolalarning umumiy salomatligiga hamda rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. TYN diagnostikasi va davolash usullari so'nggi yillar davomida sezilarli darajada takomillashgani bilan birga, bolalar uchun samarali parvarish va rehabilitatsiya jarayonlari ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, tug'ma yurak nuqsonlari bilan tug'ilgan bolalarning hayot sifatini yaxshilash uchun individual yondashuv va tizimli parvarish tizimini yaratish zarur. Parvarishlash jarayoni faqat tibbiy yordamdan iborat bo'lib qolmay, balki psixologik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni ham o'z ichiga oladi. Bolalar va ularning oilalariga rehabilitatsiya jarayonida tegishli maslahatlar berish, bolalarning ruhiy holatini mustahkamlash, ularni kundalik hayotga moslashtirish katta ahamiyatga ega. Shuningdek, zamonaviy rehabilitatsiya usullari orasida jismoniy terapiya, nafas olish mashqlari, oziqlanish rejasi va pedagogik yordam muhim rol o'ynaydi. Maqola davomida tug'ma yurak nuqsonlari turlari, ularning asosiy belgilari, diagnostika usullari tahlil qilinib, bolalarda parvarish va rehabilitatsiyaning samarali metodlari haqida batafsil ma'lumot beriladi. Shu orqali sog'liqni saqlash mutaxassislari va ota-onalarga bu jarayonlarni to'g'ri tashkil etishda ko'mak berish maqsad qilingan. Tug'ma yurak nuqsonlari bilan jarayonni kompleks yondashuv

yordamida nazorat qilish, bolalarning hayot sifatini yaxshilash va ularning ijtimoiy faolligini oshirish mumkin.

Asosiy qism

Tug'ma yurak nuqsonlari TYN bolalar orasida eng ko'p uchraydigan tug'ma kamchiliklardan biri bo'lib, ushbu kamchiliklar yurak strukturasining rivojlanish bosqichida yuzaga kelgan buzilishlar natijasida shakllanadi. Ushbu nuqsonlar yurakning qon aylanish tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatib, bolaning umumiy rivojlanishiga hamda hayot sifatiga jiddiy zarar yetkazadi. Bugungi kunda dunyo bo'ylab 1,8 milliondan ortiq inson TYN bilan yashamoqda va har yili o'n minglab yangi holatlar aniqlanadi, O'zbekiston sharoitida ham bu kasallik bolalar orasida keng tarqalganligi ma'lum.

Tug'ma yurak nuqsonlarining tarixi va rivojlanishi. Tug'ma yurak nuqsonlarining tarixiy o'rganilishi 19-asr oxirlariga to'g'ri keladi. Rokitanskiy 1875-yilda yo'qolgan yurak shakllanishining tug'ma buzilishlarini nazariya qilgan bo'lsa, 20-asr boshlarida Shpitser va Krimskiy kabi olimlar yurak tizimining ontogenez va filogenez asoslarini baholadi. TYNning molekulyar va genetik asoslari so'nggi yillarda yangi tadqiqotlar orqali aniqlanib, ularning ko'pchilik holatlari homilaning birinchi 6-8 haftalik rivojlanishida yurak shakllanish jarayonidagi mutatsiyalar va genetik buzilishlardan kelib chiqishini ko'rsatdi. Yurak jarrohligining rivojlanishi bilan birga, 20-asr o'rtalaridan boshlab dastlabki muvaffaqiyatli jarrohlik amaliyotlari yo'lga qo'yildi. Bu soha erta diagnostika va davolash rivojlanishi natijasida TYNli bolalarning umr davomiyligini sezilarli darajada oshirish imkonini berdi. Hozirgi kunda diagnostika usullari ultratovush, elektrokardiogramma, rentgen, yurak MRTsi kabi ilg'or metodlarga asoslangan va bu amaliyotlar orqali bemor holatini yanada aniqroq baholash, to'g'ri davolash strategiyasini tanlash mumkin.

Tug'ma yurak nuqsonlarining tasnifi va turlariga TYN yurakning to'liq yoki qisman rivojlanmagan tuzilishi sifatida farqlanadi va ko'plab turlarga ega. Ularni sianozli va sianozsiz nuqsonlar deb ikkiga bo'lish mumkin. Sianozli nuqsonlar o'pka qon aylanishining kamayishi yoki to'xtashi bilan bog'liq bo'lib, bolalarda ko'kargan teri, nafas qisilishi va jiddiy holatlarni yuzaga keltiradi. Sianozsiz nuqsonlarda esa yurakda qonni to'g'ri taqsimlash buziladi, lekin ko'p hollarda simptomlar aniq ko'rinmaydi, ammo yurak ustidagi yuklama oshadi.

Tasnif bo'yicha TYN quyidagi guruhlariga ajratib olamiz. Yurak ichidagi patologik tutashmalar bu bo'lmachalararo to'siq nuqsoni, qorinchalararo to'siq nuqsoni, ochiq arterial yo'ldir. Yurak shilliq qavatining va tomirlari anomaliyasi bu o'pka arteriyasi stenozi, aorta koarktatsiyasidir. Sianozli nuqsonlar bu Fallot tetralogiyasi, o'ng qorinchaning gipoplaziyasi, tomirlarning transpozitsiyasidir. Murakkab yoki aralash nuqsonlar, sindromlar bilan bog'liqdir.

Tug'ma yurak nuqsonlari sabablari va omillari kasallikning kelib chiqish sabablari genetik va atrof-muhit omillari bilan bog'liqdir. Xromosomal va gen mutatsiyalari TYNning 7-10% holatlarida sababchi bo'lsa, ko'pchilik holatlarda poligen omillar va homilaning fazali rivojlanishidagi nosozliklar asosiy rol o'ynaydi. Homiladorlik davrida ona organizmiga virusli infektsiyalar, radioaktiv ta'sirlar, ba'zi dorilar va zararli odatlar chekish, spirtli ichimliklar qabul qilish ham kasallik yuzaga kelish xavfini oshiradi. Shuningdek, ona tanasidagi qandli diabet, autoimmun kasalliklar, o'zbek aholisida ko'p kuzatiladigan ijtimoiy va ekologik omillar ham hisobga olinadi.

Tug'ma yurak nuqsonlari mening klinik ko'rinishlarida bolalarda TYN belgilari nuqsonning turiga va og'irligiga qarab farqlanadi. Eng tez-tez uchraydigan simptomlariga

kiradi. Nafas qisishi va tez-tez charchash, ko'kargan teri siyanoz, yaxshi ovqatlanmaslik va o'sishdan ortda qolish kiradi. Yurak shovqinlari stetoskop orqali eshitiladi. Tez-tez bo'lgan respirator infeksiyalari, yumshoq to'qimalarda shish edema bo'ladi. Jismoniy faollikning pasayishi va charchoq hissi bo'ladi.

Tug'ma yurak nuqsonlari bo'lgan bolalar parvarishi jarayoni keng ko'lamli va individual yondashuvni talab qiladi. Tibbiy kuzatuvlardan o'tib boradi, muntazam kardiologik tekshiruvlar kerak, bunda ultratovush, EKG va boshqa diagnostika vositalari yordamida yurak holati baholanadi. Dori-darmon terapiyasi qilinadi, yurak ishlashini yaxshilovchi preparatlar yurak glikozidlari, diuretiklar, qon bosimini tartibga soluvchi dori vositalaridan foydalanish bururiladi. Jismoniy mashqlar va fizioterapiya maxsus nafas olish va motor faolligini oshiruvchi mashqlar bolaning umumiy salomatligini yaxshilab beradi. Psixologik yordam berish uchun bolaning ruhiy holatini qo'llab-quvvatlash, ota-onalar uchun maslahatlar berish, yordam ko'rsatish, infeksiyalarni oldini olish kerak. Emlash va gigiyena qoidalariga rioya qilish, bronxopulmonal patologiyalarni nazorat qilish kerak. Ovqatlanish rejimida yetarli miqdorda to'yimli ovqatlanish, vitamin va mineral moddalar ovqatini tarkibida bo'lishi kerak.

Reabilitatsiya va ijtimoiy moslashuvda nafaqat sog'liqni tiklash, balki bolaning o'zini normal his qilishi va ijtimoiy hayotga qo'shilishiga qaratilgan. Jismoniy terapiya va koordinatsiyani yaxshilovchi mashqlar, pedagogik yordam, psixologik treninglar muhim ahamiyatga ega. Bolalar uchun ijtimoiy muhitda moslashuv va o'rganish sharoitlarini yaratish, shuningdek, oila va maktab jamoasi bilan yaqindan hamkorlik qilish sog'lomlashtirishda hal qiluvchi omildir. Bu jarayon ko'pincha uzoq muddatli nazorat va qo'llab-quvvatlashni talab qiladi. Natijada, tug'ma yurak nuqsonlari bilan tug'ilgan bolalar uchun kompleks yondashuv asosida parvarish va reabilitatsiya olib borilishi hayot sifatini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv bolalar organizmining tuzilish va funktsiyalarini to'g'irlash, ruhiy holatini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy muhitga moslashuvini ta'minlash orqali umr davomiyligini oshiradi va ularning sog'lom kelajak qurishiga imkon beradi.

Xulosa

Tug'ma yurak nuqsonlari bilan bog'liq parvarish va reabilitatsiya jarayonlari bolaning sog'lig'ini yaxshilash, umr davomiyligini oshirish va faol hayot kechirish uchun juda muhimdir. Ushbu nuqsonlar homiladorlikning dastlabki bosqichlarida yuzaga keladigan yurak rivojlanishidagi buzilishlar asosida paydo bo'ladi va turli turlarga ega bo'lib, har biri o'zining alohida tashxis va davolash yondoshuvlarini talab qiladi. Zamonaviy tibbiyotda erta tashxis va reabilitatsiya usullari joriy etilishi natijasida bolalarning hayot sifati ancha yaxshilangan. Parvarish jarayonida pediatrlar va kardiologlar tibbiy-terapevtik choralar, dori-darmonlar va jismoniy terapiyani birgalikda qo'llashadi. Shuningdek, ota-onalarning roli ahamiyatli dijarayonning muvaffaqiyatli bo'lishiga yordam beradi. Bolalarga ijtimoiy muhitga moslashishga imkon beruvchi reabilitatsiya dasturlari nafaqat sog'liqni tiklash, balki ularning jamiyatdagi faol ishtirokiga ham xizmat qiladi. Shu tariqa, kompleksi yondashuvni tashkil etish, metodikotni takomillashtirish va zamonaviy diagnostika hamda davolash usullarini qo'llash orqali tug'ma yurak nuqsonlari bo'lgan bolalarni samarali parvarishlash va ularning reabilitatsiyasini ta'minlash mumkin. Bu yondashuvlar bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligini mustahkamlash, ularni ijtimoiy hayotga integratsiyalash uchun asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Ushbu maqola orqali tug'ma yurak nuqsonlari sabablari, turlari, klinik ko'rinishlari, shuningdek parvarish va reabilitatsiya usullarining samaradorligi haqida to'liq va

keng qamrovli ma'lumotlar taqdim etildi, bu esa sog'lom avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov A.A., To'xtayev M.T. "Bola kardiologiyasi asoslari". – Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2018. – 324 b.
2. Abdullayeva D.X. "Pediatriyada yurak-tomir tizimi kasalliklari". – Toshkent: O'zbekiston davlat tibbiyot akademiyasi nashriyoti, 2020. – 276 b.
3. Qodirova S.M. "Tug'ma yurak nuqsonlari: etiologiyasi, klinik belgilari va reabilitatsiya asoslari". – Toshkent: Ilm ziyo, 2019. – 198 b.
4. Jo'rayev A.K., Xolmatova G.S. "Bolalarda yurak nuqsonlarini erta aniqlash va parvarish choralari". – Samarqand: SamDTI nashriyoti, 2021. – 243 b.
5. Matkarimova N.I. "Pediatriyada reabilitatsiya va parvarish usullari". – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. – 210 b.
6. Sodiqova M.O. "Tug'ma yurak nuqsonlari bilan bolalarda fizioterapiya va psixologik reabilitatsiya". – Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2022. – 256 b.

